

QO‘QON XONLIGIDA SUDLOV MASALALARI VA IJTIMOY-SIYOSIY JARAYONLAR**Xakimov Jahongir Nematjon o‘g‘li** – katta o‘qituvchiXakimovjahongir.0308@gmail.com

Qarshi davlat texnika universiteti

СУДЕБНЫЕ ВОПРОСЫ И СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В ХАНСТВЕ КОКАН**Хакимов Джахонгир Немаджонович** – старший преподаватель

Каршинский государственный технический университет

JUDICIAL ISSUES AND SOCIO-POLITICAL PROCESSES IN THE KOKAN KHANATE**Khakimov Jahongir Nematjonovich** – Senior Lecturer

Karshi State Technical University

Tayanch so‘zlar: Qo‘qon xonligi, sudlov tizimi, qozi, shariat, huquqiy munosabatlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, davlat boshqaruvi.

Rezyume. Maqolada Qo‘qon xonligida sudlov tizimining shakllanishi, uning huquqiy asoslari hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritib beriladi. Tadqiqotda qozilar faoliyati, sud amaliyotining jamiyat hayotidagi o‘rni va sud qarorlarining siyosiy barqarorlikka ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, sud tizimining xalq o‘rtasida adolatni ta’minlashdagi ahamiyati hamda uning davlat boshqaruvidagi roli tarixiy manbalar asosida ochib beriladi. Maqolada sudlov amaliyotining ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi vazifasi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ko‘rsatgan ta’siri ilmiy jihatdan baholanadi.

Ключевые слова: Кокандское ханство, судебная система, казий, шариат, правовые отношения, общественно-политические процессы, государственное управление.

Резюме. В статье рассматриваются формирование судебной системы в Кокандском ханстве, ее правовые основы и взаимосвязь с общественно-политическими процессами. В ходе исследования анализируется деятельность казиев, значение судебной практики в жизни общества, а также влияние судебных решений на политическую стабильность государства. Особое внимание уделяется роли судебных институтов в обеспечении справедливости и их месту в системе государственного управления. На основе исторических источников дается научная оценка значения судебной системы в регулировании общественных отношений и ее влияния на социально-политические процессы.

Key words: Kokand Khanate, judicial system, kazi, Sharia law, legal relations, socio-political processes, state administration.

Summary. This article examines the formation of the judicial system in the Kokand Khanate, its legal foundations, and its relationship with socio-political processes. The study analyzes the activities of qadis (judges), the role of judicial practice in social life, and the impact of court decisions on political stability. Special attention is given to the importance of judicial institutions in ensuring justice and their place in state administration. Based on historical sources, the article provides a scientific assessment of the role of the judicial system in regulating social relations and its influence on socio-political developments.

Kirish. Ma’lumki, Qo‘qon xonligining shimoliy hududlarida biylik sudlari faoliyat yuritgan bo‘lsa, janubiy hududlarida biylar bilan bir qatorda qozilar ham ish olib borganlar. Biylik sudlaridan farqli ravishda qozilik sudlarida ish ko‘ruvchi qozilar xon yoki bek tomonidan tayinlangan. Har bir viloyat sudida bosh qozi bo‘lib, ular orasida Toshkent viloyat bosh qozisining mavqiy yuqori hisoblangan. Xonlikdagi sud va sudlov masalasida olimlarning qarashlari turlicha. Jumladan, F.Bakirov o‘zining «Chor Turkistonida sud, shariat va odat» kitobida Qo‘qon xonligidagi qozilar sudiga kengroq to‘xtalib o‘tgan bo‘lsa, V.P.Nalivkin qozilar boshqa lavozimlar kabi ulamolar tomonidan egallanadigan mansablar qatoriga kirganligini qayd etadi [1:167]. Shuningdek, Z.Muqimov va M.Xamidovalarning tadqiqotlarida ham sud va sudlovga oid ma’lumotlar uchraydi [2:128].

F.Bakirovning yozishicha, xonlikda qozi va muftilardan iborat sudlov ishlarini olib boruvchi amal egalari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, Toshkent bekligida to‘rt xil qozilar ish yuritgan: Qozi kalon, Qoziyul quzzot, Qozial askar va Qozi rais shular jumlasidandir [5:129].

Qozi kalon boshqa qozilar kabi bevosita xon tomonidan tayinlangan bo‘lib, bu lavozimni egallash uchun shariatni va fiqhilmini yaxshi bilishi shart hisoblangan. Qozi kalon

huquqiy jihatdan boshqa qozilardan rasman farq qilmasada, oddiy qozilar Qozi kalonga ma’lum darajada bo‘ysungan. Bu bo‘ysunish Qozi kalonning buyruqlarini bajarishdan iborat bo‘lgan. Agarda Qozi kalon boshqa bir qozi tomonidan chiqarilgan hukmga qo‘shilmasa, uni qayta ko‘rish haqida taklif kiritishga haqli bo‘lib, ushbu taklif qozilar uchun majburiy hisoblangan. Shuningdek, Qozi kalon o‘z huzurida ish olib borishni taklif qilishi ham mumkin bo‘lgan.

Asosiy qism. Qozilarning ish yuritishida: nikoh shartnomasini tuzish, meros masalasini hal qilish, turli hujjatlarni rasmiylashtirish, mulkni ro‘yxatga olish, boquvchisini yo‘qotgan (yetim)larning mulklarini ro‘yxatga olish va ularning manfaatini himoya qilish kabi masalalarni atroflicha o‘rganib, shariat asosida hal qilish asosiy o‘rin egallagan [6:129]. Sud hokimiyati Qozi kalon va qozilar qo‘lida bo‘lib, ular Qur‘onga va boshqa shariat manbalariga asoslanib ish ko‘rganlar.

Qozi kalon odil sudlov ishlarini amalga oshiruvchi sifatida ayrim hukmlar ustidan kelgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish uchun qabul qilishga haqli edi. Shu boisdan u shikoyatlarni shaxsan o‘zi qilgan. Boshqa qozilar esa bevosita arizalarni qabul qilib, o‘zlariga tegishli ishlarni bajarar va sud majlisida ishlarni ko‘rib, hukm chiqargan.

Qoida bo'yicha xonlik davrida qozilar ustidan shikoyat berilmas edi [5:9-15].

Qoziyul quzzot (qozilar qozisi), xon tomonidan shariatni chuqur biladigan kishilardan tayinlanadigan mansab egasi. U garchi alohida huquqlardan foydalanmasada, qozi kalonning yordamchisi sifatida uning tomonidan topshiriladigan ayrim vazifalarni bajargan. Qozi kalon yo'q vaqtlarda vaqtincha uning o'rnini egallab turgan [4:73]. Shu sababli qozilar sudi tarixida Qoziyul quzzotlar ayrim hollardagina uchraydi.

Qozi ul-quzzot – qozilar qozisi. Qozii kalon – poytaxtda va viloyat markazlaridagi qozilarning va qozixona ishlarining ustidan nazorat qilardi. Qozii mutlaq – bosh qozi. Qozii askar – qo'shin qozisi. Umarxon davrida bu vazifa tarixchi Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiya yuklangan edi. Qozi rais – qo'shinlarda askariya muftisi bergan fatvolarning ijro etilishi ustidan nazorat qilardi [8:137-140].

Qozi-al askar beklar tomonidan tayinlanib, beklar qoshida faoliyat olib boruvchi lavozim egasi. Qozial askarlar maxsus sudya hisoblanib, beklar xizmatida bo'lgan askarlar tomonidan qilingan jinoyatlarni tekshirar edilar. Shu bilan birga, beklar qoshidagi ayrim mansabdor shaxslar tomonidan qilingan mansab jinoyatlarini ham ko'rgan [4:75]. Qozial askarning hukmi ustidan shikoyat bevosita bekning o'ziga topshirilishi mumkin bo'lgan.

Qozi rais qozilik qiluvchi bolib, u ham bek tomonidan tayinlangan. Bu lavozim egasi ikki vazifani: rais tariqasida mirshablik xizmatini bajarish, ko'chalarda, bozorlarda tartib o'rnatgan shunigdek, diniy marosimlarning bajarilishi hamda kishilarning nomoz o'qishi, ro'za tutishi, shariat ahkomlarining to'g'ri bajarilishi va boshqa shu kabi ishlar ustidan nazorat qilishi uning raislik vazifasi hisoblangan. Lekin Qo'qon xonligining so'nggi davrlarida bozorlarning kengayib, muomala turlarining ortib borishi tufayli raisga faqat nazoratchi vazifasining berish kifoya qilmasdan, unga jazolash huquqi ham berilgan. Ya'ni raisga savdo masalalarida, o'lhovlarda, oilaviy munosabatlarda shariat qoidalariga qo'pol ravishda buzilgan bo'lsa, sud qilib jazolash xuquqi berildi. Ma'muriy rahbar va qozilik huquqining bir kishiga berilganligi ma'muriy va qozilik institutlarining mazkur masalada birlashtirilganligini ko'rsatadi. Qozi rais mansabi boshqa xonliklarda, xususan, Xiva xonligida ham uchraydi. Olimxon tomonidan 1810-yilda chiqarilgan Yorlik bo'yicha Qo'qon xonligidagi boshqa qozilar kabi Toshkent qozilari ham jinoyat va fuqarolik ishlarini shariat qoidalariga asoslangan holda o'zlari hal qilardilar. Lekin davlatga qarshi jinoyatlar ko'pincha xonning o'zi tomonidan, ayrim hollardagina beklar tomonidan ko'rilgan [5:11].

Muhokama qismi. Qo'qon xonligida sudlov tizimini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, u faqatgina huquqiy mexanizm emas, balki kengroq ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritgan. Sud organlari – qozilar, muftiylar va mahalliy biylar – jamiyatda tartib va adolatni ta'minlash vazifasini bajargan bo'lsalar-da, ularning faoliyati siyosiy hokimiyat va ijtimoiy kuchlar muvozanatiga bevosita bog'liq bo'lgan.

Birinchidan, sudlov tizimining asosini tashkil etgan shariat normalari va odat huquqi o'rtasidagi o'zaro munosabat muhim ilmiy muhokama obyekti hisoblanadi. Amaliyotda ko'plab nizolar mahalliy urf-odatlar asosida hal etilgan, ayniqsa qishloq jamoalarida biylar va oqsoqollar muhim rol o'ynagan. Bu esa sud tizimining

markazlashmagan, ko'p pog'onali va mahalliy an'analarga moslashuvchan xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, markaziy hokimiyat manfaatlariga daxldor ishlar shariat asosida qozilar tomonidan ko'rib chiqilgan va yakuniy vakolat xon qo'lida jamlangan.

Ikkinchidan, sud tizimining siyosiy jarayonlarga ta'siri masalasi muhimdir. Xonlikda ichki siyosiy kurashlar, hokimiyat uchun raqobat va viloyatlar o'rtasidagi ziddiyatlar sud organlari orqali tartibga solingan yoki ba'zan siyosiy bosim vositasiga aylantirilgan. Ayniqsa, markaziy hokimiyatning kuchaygan davrlarida sud tizimi intizom va nazorat mexanizmi sifatida ishlagan bo'lsa, siyosiy beqarorlik davrlarida uning mustaqilligi nisbatan cheklangan.

Uchinchidan, ijtimoiy tabaqalanish sud amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Zodagonlar, diniy ulamolar va oddiy aholi o'rtasidagi huquqiy munosabatlar bir xil darajada tartibga solingan bo'lsa-da, amaliyotda mansab va ijtimoiy mavqe sud qarorlariga ma'lum darajada ta'sir etgan holatlar kuzatilgan. Bu jihat sud tizimining ideal adolat tamoyillari bilan real siyosiy-ijtimoiy sharoit o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi. Shuningdek, Qo'qon xonligida sud jarayonlari nafaqat jazolash, balki murosaga keltirish, yarashtirish va ijtimoiy totuvlikni saqlashga qaratilganligi bilan ham ajralib turadi. Ko'plab nizolar moddiy kompensatsiya, kechirim yoki jamoa vositachiligi orqali hal etilgan. Bu esa sud tizimining repressiv emas, balki muvozanatli va ijtimoiy barqarorlikni ko'zlagan xususiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Xulosa. Qo'qon xonligida sudlov masalalari davlat boshqaruv tizimining ajralmas va muhim tarkibiy qismi bo'lib, u jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Xonlik hududida sud-huquq tizimi, asosan, islom huquqi-shariat qoidalarida hamda mahalliy urf-odatlar (odat huquqi) asosida shakllangan. Sud ishlarini yuritishda qozilar, muftiylar, biylar va boshqa mansabdor shaxslar faol ishtirok etgan bo'lib, ular nafaqat huquqiy, balki ma'naviy-axloqiy mezonlarga ham tayangan holda hukm chiqarganlar. Sudlov tizimi markaziy hokimiyat manfaatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Xon oliy sud vakolatiga ega bo'lib, murakkab va siyosiy ahamiyatga ega ishlar bevosita uning ko'rib chiqishiga havola etilgan. Shu orqali sud tizimi nafaqat adolatni ta'minlash, balki davlat hokimiyatini mustahkamlash vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Ayrim hollarda siyosiy raqobat, ichki nizolar va hokimiyat uchun kurash jarayonlarida sud hukmlari siyosiy maqsadlarga yo'naltirilganligi ham kuzatiladi.

Qo'qon xonligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar-mahalliy zodagonlar, diniy ulamolar va harbiy amaldorlar o'rtasidagi munosabatlar sud tizimining faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Sud organlari jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi nizolarni tartibga solishda muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, ba'zi davrlarda markaziy hokimiyatning zaiflashuvi sud tizimining mustaqilligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Umuman olganda, Qo'qon xonligida sudlov tizimi diniy-huquqiy asosga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy institut sifatida shakllanib, davlatning siyosiy barqarorligi va jamiyatdagi tartibni saqlashda muhim vazifani bajargan. Ushbu masalani o'rganish O'rta Osiyo xonliklarida davlat boshqaruvining huquqiy asoslarini chuqurroq anglash, tarixiy tajribani tahlil qilish va zamonaviy huquqiy tizimlar bilan qiyosiy o'rganish uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань: Типография императорского университета, 1886.
2. Muqimov Z. Yu. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. – Toshkent: «Adolat», 2004.
3. Hamidova M. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. – Toshkent: TDYUI, 2004.
4. Култелеев Т. М. Уголовное обычное право казахов. – Алма-Ата: 1955.
5. Bakirov F. Chor Turkistonda sud, shariat va odatiy. – Toshkent: «Fan», 1967.
6. Плоских М. Киргизы и Кокандское ханство. – Фрунзе: «Илим», 1977.
7. Xudoyqulov T.D. Markaziy osiyo davlatlarining boshqaruv tarixi (markaziy, mahalliy, harbiy, diniy hokimiyat (XVIII–XX asr boshlari)). – Shahrizabz: 2023.
8. Hakimov J.N. The role of religious titles and positions in the governance of the khanates. // Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences. 2025.
9. Google.ru.
10. Ziyouz.net.